**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**

**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI**

Ro'yxatga olindi:
№ 300
2022 yil "25" 08

**"TASDIQLAYMAN"**
O'quv ishlari bo'yicha prorektor
_______ Bozorov O.N.
"___" ___________ 2022 yil

# *ICHKI AUDIT*

*fanining*

***SILLABUSI***

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 400000 | - | Biznes, boshqaruv va huquq |
| **Ta'lim sohasi:** | 410000 | - | Biznes va boshqaruv |
| **Ta'lim yo'nalishi:** | 70410102 | - | Audit (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) |

**Qarshi – 2022 yil**



Scanned with CamScanner

Fanning sillabusi Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti Kengashi tomonidan 2022 yil "28" 06. da 11 -sonli yig'ilishi qarori bilan tasdiqlangan o'quv dasturi asosida tuzildi.

**Tuzuvchi:** **Jumayeva G.** "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasi dotsenti, i.f.n.

Fanning sillabusi "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasining 2022 yil 24.08. dagi 01 -son yig'ilishida muhokamadan o'tgan va "Iqtisodiyot" fakulteti uslubiy komissiyasiga muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

**Kafedra mudiri** ____________ **A.Alikulov**

Fanning sillabusi "Iqtisodiyot" fakulteti Uslubiy Komissiyasida (bayon №01 27.08 2022 y.) va institut Uslubiy Kengashida (bayon №01, 29.08 2022 y.) muhokama etilgan va o'quv jarayonida foydalanishga tavsiya qilingan.

O'quv- uslubiy boshqarma boshlig'i ____________ **Turdiyev Sh.**

Fakultet uslubiy komissiyasi raisi ____________ **Qurbonov A.**



**Fan sillabusi**
**Qarshi muhandislik iqtisodiyut instituti**

**Fan to'g'risida ma'lumot**
**Fan shifri: ES** 336 IAUD 1 4 2.01
**Fan nomi:** Ichki audit
**Semestr/ yil: 1-** semestr/2022-2023 o'quv yili
**Kafedra:** Buxgalteriya hisobi va audit
**Soatlar/kreditlar miqdori:** ECTS – Kreditlar 4

| **Fan/modul kodi**<br>ES. 336 IAUD 1 4 2.01 | | **O'quv yili**<br>2022-2023 | **Semestr** | **ECTS – Kreditlar**<br>4 |
|---|---|---|---|---|
| **Fan/modul turi**<br>*Tanlov fani* | | **Ta'lim tili**<br>O'zbek | | **Haftadagi dars soatlari**<br>4 |
| **1.** | **Fanning nomi** | **Auditoriya mashg'ulotlari (soat)** | **Mustaqil ta'lim (soat)** | **Jami yuklama (soat)** |
| | Ichki audit | 60 | 60 | 120 |

**Fan bo'yicha mashg'ulotlarning joylashuvi:**
**Auditoriya vaqti:** Dars jadvaliga asosan
**Magistrantlar:**
**Fan uchun mas'ul kafedra:** Buxgalteriya hisobi va audit kafedrasi
**Instruktor to'g'risida ma'lumot**
**Instruktor:** Jumayeva Gulrux
**Kafedra joylashgan joyi:** QarMII, 8-o'quv binosi, 108-xona
**Telefon:** 97 2945510 ish telefoni
**E-mail:** gulruh.jumayeva.68@mail.ru
**Ish vaqti:** Belgilangan vaqt oralig'ida

## I.Fanning tavsifi

Ichki audit fani 70410102-Audit (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) magistratura mutaxassisligida 1-semestrda tanlov fani sifatida o'qitiladi. Ushbu sillabusda raqobatdosh iqtisodiyotda xo'jalik yurituvchi subyektlar xo'jalik-moliya-tijorat faoliyatini samarali boshqarish, hisob-kitob tizimining to'g'ri, o'z vaqtida yuritilishini tashkil etilishi ustidan nazorat o'rnatishda ichki auditning zarurligi, ahamiyati, ichki auditning nazariy, uslubiy va amaliy jihatlari aks etgan. Magistrantlarning mazkur fanni chuqur o'rganishi xo'jalik jarayonlarida bo'layotgan operatsiyalarni o'z vaqtida to'liq hujjatlashtirilishi, hisobga olinishi va hisobotlarda to'g'ri ifodalanishini moliyaviy nazorat qilish, auditorlik tekshiruvini o'tkazish, ichki auditni amalda qo'llay olishga o'rgatadi.



Scanned with CamScanner

## II. Fanning maqsadi

"Ichki audit" fanining asosiy maqsadi talabalarda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda buxgalteriya hisobi tashkil qilinganligi ustidan nazorat o'rnatish (xo'jalik mablag'lari va ularning kelib chiqish manbalari, ularning xo'jalik yuritish jarayonidagi harakati, xo'jalik muomalalarini hisobga olish to'g'riligi, ularni hujjatlashtirish va umumlashtirish, korxona, tashkilot, muassasalarning mulkiy, moliyaviy faoliyati to'g'risidagi to'liq ishonarli ma'lumotlarni shakllantirilganligi, boshqaruv hisobini tashkil qilish, uning normativ huquqiy asoslari) bo'yicha yo'nalishiga mos bilim, ko'nikma va malaka shakllantirish hisoblanadi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini samaradorlik va unumdorlik ko'rsatkichlariga asosan baholash, korxona moliyaviy va boshqaruv faoliyati bilan bog'liq muammoli masalalar yuzasidan asosli tavsiya va yo'nalish berishda ichki va tashqi auditning o'rni beqiyosdir. Ichki audit fanining vazifasi - korxonalarda buxgalteriya hisobini tashkil etish, mavjud barcha resurslardan foydalanish, samaradorlikka erishish yo'llarini aniqlash, tadbirkor va ishbilarmonlar faoliyatiga baho berish kabi masalalarni hal etishga ko'maklashish, hisobotlarni tuzish, moliyaviy hisobot ma'lumotlarining shaffofligini ta'minlash, boshqa sub'ektlar bilan hisob siyosati to'g'ri tashkil etilishini qonunlar, qarorlar va boshqa normativ hujjatlarni o'rganishlari va o'zlashtirishlari kabi masalalarni o'rgatishdan iborat.

## III. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Fanni o'zlashtirish natijasida magistrant:

- ichki audit funktsiyalari;
- ichki auditda qo'llaniladigan usullari ***haqida tasavvurga ega bo'lishi;***
- ichki auditning rejasi va dasturini;
- hisobning alohida bo'limlarida ichki auditni o'tkazish usullarini;
- ichki audit natijalarini umumlashtirishni ***bilishi va ulardan foydalana olishi;***
- ichki nazorat tizimini baholash;
- xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tahlil qilish;
- ichki audit tekshiruvini o'tkazish ***ko'nikmalariga ega bo 'lishi kerak;***
- ichki audit xizmati ishining samaradorligini baholash;
- ichki audit tekshiruvi natijalari bo'yicha auditorlik hisobotini tuzish ***malakalariga ega bo'lishi kerak.***

## IV. Ta'lim berish shakllari:

- ma'ruzalar;
- interfaol keys-stadilar;



- amaliyotlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlarni tayyorlash;
- individual loyihalar;

jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

## V. Fanning tarkibiy tushilishi

| DARS | Mavzular | Ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar rejasi | Soat: Ma'ruza | Soat: Amaliy |
|---|---|---|---|---|
| **1-MODUL. ICHKI AUDITNING NAZARIY ASOSLARI** | | | | |
| 1. | **"Ichki audit" faniga kirish** | "Ichki audit" fanining predmeti, metodi, ob'ektlari hamda boshqa fanlar bilan o'zaro aloqasi. Korxonani boshqarish tizimida moliyaviy nazoratning o'rni. | 2 | 2 |
| 2 | | Moliyaviy nazorat turlari. Ichki audit tushunchasi, uning maqsad va vazifalari. Ichki audit xususiyatlari. Ichki audit turlari. | 2 | 2 |
| 3. | **Ichki auditning me'yoriy-huquqiy asoslari** | Ichki auditni tashkil qilish bo'yicha xalqaro talablar. Ichki auditni O'zbekiston Respublikasida me'yoriy tartibga solish. | 2 | 2 |
| 4. | | Korxonalarda ichki auditning tartibga solinishi. Ichki auditorlarning professional axloqi. Ichki audit xizmati xodimlarining huquq va majburiyatlari. | 2 | 2 |
| 5. | **Ichki audit xizmatini tashkil etish** | Ichki nazorat va audit tizimiga talablar. Ichki nazorat xizmatini tashkil etish shakllari. Korxonalarda ichki audit xizmatini tashkil etish bosqichlari. Korxonalarda ichki audit xizmati to'g'risidagi Nizom. Ichki auditning korxonaning boshqa xizmatlari va bo'limlari bilan o'zaro bog'liqligi. Ichki nazorat va auditni tashkil qilishga xalqaro talablar. Ichki audit xizmatining funksiyalari, huquqlari va majburiyatlari | 2 | 2 |
| 6. | **Ichki auditni rejalash-tirish** | Ichki auditni o'tkazish bosqichlari. Ichki audit xizmatining ishini rejalashtirish. Ichki auditning rejasi va dasturini tuzish. | 2 | 2 |
| 7. | | Auditorlik tekshiruviga tayyorgarlik ko'rish. Korxonada ichki auditni o'tkazish tartibi. Ichki auditorlik ish hujjatlari. | 2 | 2 |



Scanned with CamScanner

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 8. | **Ichki audit usullari** | Ichki audit metodikasining xususiyatlari. Ichki auditda mulk va majburiyatlar inventarizatsiyasi. Nazorat, tekshiruv va o'lchov. Alohida hujjatlar va ularning bir turdagi va o'zaro bog'liq muomalalari bo'yicha uyg'unligini tekshirish metodlari. | 2 | 2 |
| 9. | | Ichki auditorlik tahliliy amallar. Ichki auditda auditorlik tanlash. Ichki auditning boshqa metodlari. | 2 | 2 |
| 10. | **Ichki auditni o'tkazish** | Ichki auditda korxona buxgalteriya hisobi tizimini baholash. Ichki auditorlik ish hujjatlarni tayyorlash. Aksiyadorlik jamiyatlarida ichki audit xususiyatlari. | 2 | 2 |
| 11. | | chki auditni o'tkazishda dasturiy ta'minotdan foydalanish va ma'lumotlarni kompyuterda qayta ishlash sharoitida ichki audit. Alohida filiallarda tekshiruvni o'tkazish. | 2 | 2 |
| **2-MODUL. ICHKI AUDITNI O'TKAZISH XUSUSIYATLARI** | | | | |
| 12. | **Hisobning alohida bo'limlari-da ichki auditni o'tkazish xususiyat-lari** | Pul mablag'lari bo'yicha muomalalarning ichki auditi. Hisob-kitob muomalalari ichki auditi. Ishchilar bilan mehnat haqi hisobining ichki auditi. | 2 | 2 |
| 13. | | Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar bo'yicha muomalalar ichki auditi. Tovar moddiy zahiralar hisobi va saqlanishining ichki auditi. Moliyaviy natijalar hisobining ichki auditi. | 2 | 2 |
| 14. | **Ichki auditda biznes jarayonlar va risklar** | Ichki auditni o'tkazishda korxonaning biznes-jarayonini o'rganish ahamiyati. "Ishlab chiqarish" biznes jarayonining ichki auditi. "Ishlab chiqarish" biznes-jarayonining ichki auditini o'tkazish usullari va vositalari. Biznes jarayonda ichki auditida auditorlik risklar. | 2 | 2 |
| 15. | **Ichki audit natijalarini umumlashtirish va rasmiylash-tirish** | Ichki audit natijalarini umumlashtirish. Ichki audit tekshiruvi bo'yicha yakuniy hujjatni tuzish tartibi. Ichki audit natijasida aniqlangan kamchiliklar va xatolarni to'g'rilash bo'yicha chora-tadbirlar. Keyingi auditorlik nazoratini tashkil qilish. Ichki audit xizmati ishining samaradorligini baholash. Kengash va rahbariyatga hisobot berish. | 2 | 2 |
| **1-semestr buyicha JAMI** | | | **30** | **30** |

### VI. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlarini o'tkazishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilinadi:

- amaliy mashg'ulotlarning maqsadini aniq belgilab olish;
- o'qituvchining innovatsion pedagogik faoliyati bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish imkoniyatlariga talabalarda qiziqish uyg'otish;



- talabalarda natijani mustaqil ravishda qo'lga kiritish imkoniyatini ta'minlash;
- talabani nazariy-metodik jihatdan tayyorlash;
- amaliy mashg'ulotlar nafaqat aniq mavzu bo'yicha bilimlarni yakunlash, balki talabalarni tarbiyalash manbai hamdir.

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1-MODUL. ICHKI AUDITNING NAZARIY ASOSLARI

1-mavzu. "Ichki audit" faniga kirish.

2-mavzu. Ichki auditning me'yoriy-huquqiy asoslari

3-mavzu. Ichki audit xizmatini tashkil etish

4-mavzu. Ichki auditni rejalashtirish

5-mavzu. Ichki audit usullari

6-mavzu. Ichki auditni o'tkazish

2-MODUL. ICHKI AUDITNI O'TKAZISH XUSUSIYATLARI

7-Mavzu. Hisobning alohida bo'limlarida ichki auditni o'tkazish xususiyatlari

8-Mavzu. Ichki auditda biznes jarayonlar va risklar

9-Mavzu. Ichki audit natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurulmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashgulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

### VII.Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

"Ichki audit" fani bo'yicha talabaning mustaqil ishi shu fanni o'rganish jarayonining tarkibiy qismi bo'lib, uslubiy va axborot resurslari bilan to'la ta'minlangan.

Talabalar auditoriya mashg'ulotlarida pedagog-xodimlarning ma'ruzasini tinglaydilar, misol va masalalar yechadilar. Bundan tashqari ayrim mavzularni kengroq o'rganish maqsadida qo'shimcha adabiyotlarni o'qib, referatlar tayyorlaydi hamda mavzu bo'yicha professor-o'qituvchi tomonidan berilgan mustaqil ish va testlarni yechadi. Mustaqil ta'lim natijalari reyting tizimi asosida baholanadi.

Uyga vazifalarni bajarish, qo'shimcha darslik va adabiyotlardan yangi bilimlarni mustaqil o'rganish, kerakli ma'lumotlarni izlash va ularni topish yo'llarini aniqlash, internet tarmoqlaridan foydalanib ma'lumotlar to'plash va ilmiy izlanishlar olib borish, ilmiy to'garak doirasida yoki mustaqil ravishda ilmiy manbalardan foydalanib ilmiy maqola va ma'ruzalar tayyorlash kabilar talabalarning darsda olgan bilimlarini chuqurlashtiradi, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi. Shuning uchun ham mustaqil ta'limsiz o'quv faoliyati samarali bo'lishi mumkin emas.

"Ichki audit" fanidan mustaqil ish majmuasi fanning barcha mavzularini



Scanned with CamScanner

qamrab olgan va quyidagi mavzu ko'rinishida shakllantirilgan.

1-MODUL. ICHKI AUDITNING NAZARIY ASOSLARI
"Ichki audit" fanining o'ziga xos xususiyatlari va fanlar tizimida tutgan o'rni.
"Ichki audit" fanining nazariy asoslari
Ichki auditning me'yoriy-huquqiy asoslari.
Korxona va tashkilotlarda ichki audit xizmatini tashkil etish.
Korxona va tashkilotlarda ichki auditni rejalashtirish.
Ichki audit usullari va ularning tavsifi.
Ichki auditni o'tkazish tartiblari.

2-MODUL. ICHKI AUDITNI O'TKAZISH XUSUSIYATLARI
Hisobning alohida bo'limlarida ichki auditni o'tkazish xususiyatlari
Ichki auditda biznes jarayonlar va risklar.
Ichki audit natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish.

Magistrantlar mustaqil ishini tashkil etishda fani xususiyatlarini, shuningdek magistrantning o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari va audit standartlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;
berilgan mavzular bo'yicha referat tayyorlash;
seminar va amaliy mashgulotlarga tayyorgarlik ko'rish;
amaliyotdagi mavjud muammolarning yechimini topish;
ilmiy maqola, anjumanga ma'ruza tezislarini tayyorlash;
fanning eng dolzarb muammolarini qamrab oluvchi referatlar yozish;
nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash;
amaliyotdagi mavjud muammolarning yechimini topish;
ilmiy maqola, anjumanga dokladlar, ma'ruza tezislarini tayyorlash; o'rganilayotgan fan bo'yicha mavjud asosiy ilmiy adabiyotlarga annotatsiya yozish va boshqalar.

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

**Fan bo'yicha kurs ishi (loyihasi)**

Fan bo'yicha kurs ishlari o'quv rejada ko'zda tutilmagan.
O'quv rejada fan bo'yicha kurs ishi ko'zda tutilmagan.



**VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:**

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, mustaqil ta'lim bo'yicha berilgan topshiriqlarni bajarish hamda yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish talab qilinadi..

Fanning yakuniy bahosi uchta yo'nalishdagi baholarga asoslanadi:

(1) Dars mashg'ulotlariga tayyorgarlik va faol ishtirok etish (10%).

Dars jarayonida muntazam ishtirok etishdan tashqari, magistrantlar darslar boshlanishidan oldin onlayn o'quv materiallari bilan tanishgan bo'lishlari talab etiladi. Har bir talabadan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda faol ishtirok etish talab qilinadi.

(2) Auditoriyadagi mashg'ulotlar (10%)

Har semestrda haftada o'tilgan ma'ruzalar asosida jami 15 tadan amaliy mashg'ulot o'tkaziladi. Har bir amaliyot mag'ulot bo'yicha topshiriqlar keyingi dars mashg'ulotiga qadar bajarilib topshirilishi lozim. Amaliy mashg'ulotda berilgan topshiriqlarni bajarish (10%).

(3) Yakuniy baholash (80%) (Baholash turi ("Test" (kompyuterda)), vaqti (jadval asosida), baholash mezonlari (har bir magistrantga alohida variant bo'yicha 30 ta savoldan iborat test beriladi va har bir to'g'ri javobga 1 ball belgilanadi))

**Talabalar bilimini baholash tizimi**

A (93-100)
A- (86-92)
B+(82-85)
B (77-81)
B-(71-76)
C+(67-70)
C (60-66)
C-(56-59)
D (55-50)
E (0-49)



Scanned with CamScanner

# ASOSIY VA QO'SHIMCHA O'QUV ADABIYOTLAR HAMDA AXBOROT MANBAALARI

## Asosiy adabiyotlar

### O'zbekiston Respublikasi Qonunlari

1. O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 13 apreldagi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni. // Xalq so'zi gazetasi.2016 yil 14 aprel.
2. O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 25 fevraldagi "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. // www.lex.uz.

### O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va Qarorlari

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" PF-4947-sonli Farmoni.

### O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

4. Mirziyoyev SH.M. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". T., 2017. 104 b.

### Asosiy maxsus adabiyotlar

5. Qo'ziev I., Avloqulov A., Sherimbetov I. Ichki audit. O'quv qo'llanma-T.: «Iqtisod-moliya», 2015. – 220 b.
6. Kuziev I., Tuychiev A., Xojiev M., Yakubov M. Vnutrenniy audit. Uchebnoe posobie. –T.: "IQTISOD-MOLIYa", 2019. – 420 s.
7. Tuychiev A., Qo'ziev I., Avloqulov A., Sherimbetov I., Avazov I. Audit: Darslik. -T.: Iqtisod Moliya, 2019 y. – 430 b.
8. Иванова Т.Н. Внутренний аудит системы внутреннего контроля. Институт профессиональных бухгалтеров и аудиторов России. М. 2014. 362 с.
9. Савин А. А., Савин И. А., Савин А. А. Аудит. Учебник и практикум для академического бакалавриата. М. Юрайт. г. 2015. 599 с.
10. Кеворкова Ж. А., Карпова Т.П., Савин А.А., Ахтамова Г.А. Внутренний аудит. Учебники и учебные пособия для вузов. М.: Юнити-Дана, г.2015. 319 с.





11. SH.I.Ilxomov Amaliy audit. Darslik. -T.: "Iqtisod-Moliya", 2018. - 443 b.
12. Ш. Файзиев, О.Машарипов, М.Хожиев. Практический аудит. Учебное пособие. - Т.: "Иқтисод- Молия", 2015.-208 с.
13. B.Xamdamov, SH.Ilxomov, N.Karimov, Masharipov O., M.Xojiyev. Amaliy audit. Darslik. -T.: "Iqtisod-Moliya", 2020. - 272 b.

### Qo'shimcha adabiyotlar

14. Tuychiyev A., Qo'ziyev I., Avloqulov A., Sherimbetov I., Avazov I. Audit. Darslik. – T.: "Iqtisod-Moliya", 2019. – 620 b.
15. Kuziyev I., Tuychiyev A., Xojiyev M., Yakubov M. Vnutrenniy audit. "Iqtisod-Moliya", 2018 g. – 252 str.

### Axborot manbalari

16. www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy sayti.
17. www.uza.uz – O'zbekiston Respublikasi Milliy Axborot Agentligi rasmiy sayti.
18. www.internetindicators.com – Iqtisodiy indikatorlar internet veb-sayti.
19. www.ziyonet.uz –"Ziyonet" axborot ta'lim tarmog'i.




Scanned with CamScanner